



Concepts of intensity and intensifiers in linguistics

Sherzod VALIJONOV¹

Namangan State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

15 October 2025

Accepted 15 November 2025

Available online

05 Desember 2025

Keywords:

intensification,
gradual,
de-intensification,
intensificate,
grammaticalization,
morphological structure,
unique.

ABSTRACT

This article analyzes the scholar's views on the concepts of intensity and intensifier in linguistics, and the differences between these terms are explained through examples. In addition, various scholars' classifications of intensifiers are examined and analyzed with the help of examples.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6-pp41-45>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tilshunoslikda intensivlik, intensifikator tushunchalari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kuchaytirish,
gradual,
deintensifikatsiya,
intensifikat,
grammatizatsiyalanish,
morfologik strukturasi,
unikal.

Ushbu maqolada olimning tilshunoslikda intensivlik va intensifikator tushunchalari haqida berilgan fikrlari taplilga tortilgan va ushbu terminlarning farqlari misollar orqali ochib berilgan. Shuningdek, turli olimlarning intensifikatorlar borasidagi tasnifi taplil qilinib, ular misollar yordami keltirilgan.

Понятия интенсивности и интенсификатора в лингвистике

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

интенсификация,
градуальность,
деинтенсификация,
интенсификат,
грамматикализация,
морфологическая
структура,
уникальный.

В данной статье анализируются взгляды исследователя на понятия интенсивности и интенсификатора в лингвистике, а различия между этими терминами раскрываются на основе примеров. Кроме того, рассматриваются и анализируются классификации интенсификаторов, предложенные различными учёными, с привлечением соответствующих примеров.

¹ PhD, Senior Lecturer, Namangan State Institute of Foreign Languages. E-mail: sherzodvalijonov@gmail.com

KIRISH

So'nggi yillarda intensivlik, kuchaytirish, intensifikator kabi atamalar ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortmoqda. Muammo shundaki, intensivlik kategoriyasi nisbatan yangi va shu bilan birga, kam o'rganilgan soha hisoblanadi. D. Bolingerning ta'biricha, "Gradual so'zlar turg'un xarakterga ega bo'lmay, balki o'z tabiatiga ko'ra o'zgaruvchan bo'ladi. Bunday "gradual so'zlar" o'z ma'nolarini kuchaytirish yoki kuchsizlanishga moyil bo'ladi." [1] Bu turdagi leksemalar izohli lug'atlarda ravish maqomiga ega bo'ladi. Intensivlik ma'nosiga ega bo'lgan ko'pgina so'zlar o'z tayanch so'z ma'nosi miqdorini deintensifikatsiya (kuchsizlantirish), shuningdek, intensifikatsiya (kuchaytirish) tomonga o'zgartiradi. Bir guruh tilshunoslar mazkur kategoriyaga tilda obyektiv tarzda mavjud bo'lgan holat sifatida qaraydilar, ayni paytda ularning turg'un emasligi, ya'ni o'zgaruvchanligi ularni farqlovchi xususiyatini namoyon qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Y. Sheygalning fikricha, "Intensivlik miqdor kategoriyasining xususiy ko'rinishidir. Olima intensivlik mazmuniga ega bo'lgan leksik birliklarni ikki guruhga ajratadi: 1. Kuchaytiruvchi so'zlar (intensivlar, intensifikatorlar, bunda belgi boshqa so'z yordamida kuchaytiriladi, (very kabi); 2. Ichki intensivlar yoki intensifikatlar, bunda ma'no kuchaytirish shu so'zning o'zi yordamida amalga oshiriladi (adore – like very much)." [2]

S.Y. Rodionova esa bunday leksik vositalarni ikki guruhga ajratadi:

1. Kuchaytiruvchi so'zlar: sifatlar, ravishlar va boshqalar (juda yaxshi – very good, o'lgudek xavfli – mortally dangerous) yordamida hosil bo'luvchi intensifikatsiyaning eksplisit vositalari.

2. O'z ma'nosida intensivlik ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar – intensifikatsiyaning implisit vositalari, ya'ni intensifikatlar [3]. Yana shuni ta'kidlash joizki, tilshunoslikda "intensivlar" deganda nafaqat kuchaytirish yoki kuchsizlantirish, hatto daraja va miqdor bahosi ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar tushuniladi. Shunday qilib, ravish, sifat va boshqa so'z turkumlari intensivlar maqomini oladi. Masalan, "She is madly beautiful" – U o'lgudek chiroyli. Ushbu misolda ushbu shaxsning sifatini aniqlash, ya'ni qo'shimcha ma'lumot beruvchi holatni kuzatamiz. Qiyoslang: "She is very beautiful" – U juda chiroyli misolida esa very intensifikatori faqat ekspressivlikni ta'minlash maqsadida, hech qanday qo'shimcha material kiritmagan holda baho bermogda.

Intensivlar o'zining leksik va morfologik ma'nolarini kontekstda saqlab qoladi va ularning xarakterli xususiyati tayanch so'z ma'nosini kuchaytirish hisoblansa, intensifikatorlar esa aksincha boshqa so'zlar ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi va bunda o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotadi va grammatik xususiyatini o'zgartiradi.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, intensifikatorlar tizimi doimo harakatda, o'zgarishda bo'lib, boshqa so'z ma'nosini kuchaytirishga yoki kuchsizlantirishga xizmat qiladi. Barcha so'zlar ham bu maqomga ega bo'la olmaydi, ko'proq sifat va ravishlar bu vazifani bajara oladi. **Intensifikatorlar tasnifi.**

Tushuncha kategoriyalarining usul va vositalari tilda grammatik yoki leksik kategoriyalar orqali ifodalanadi. O'rganilayotgan hodisalarning mazmun- mohiyatiga kompleks yondashuv asosida intensivlik mohiyatini chuqurroq anglash mumkin. Intensifikatorlarning quyidagi tasnif turlari farqlanadi:

1. So'z semantikasini kuchaytirish darajasi (leksik intensifikatorlar) bo'yicha;
2. Grammatizatsiyalanish darajasi bo'yicha;
3. Morfologik strukturasi bo'yicha;
4. Dominant so'zning qaysi elementi kuchaytirilayotganlik darajasi bo'yicha.

Ba'zi olimlar, jumladan, S. Grinbaum intensifikatorlar guruhini dominant so'zni ma'nosini kuchaytirish darajasi bo'yicha tadqiq etadilar. S. Grinbaum ma'no kuchaytirishning ikki bosqichli tasnifini taklif qiladi [4]. 1. Kuchaytirishning yuqori darajasi (greatly, much); 2. Kuchaytirishning eng yuqori darajasi (completely, full, perfectly).

Tilshunoslar intensifikatorlar tasnifida yagona bir fikrga kela olishmaydi va shu bois turlicha tasniflar yuzaga keladi. Bu kabi tasniflar tayanch so'z ma'nosini kuchaytirish darajasini aniqlash hamda amaliy tarjima uchun zarur. Tarjimon ish jarayonida so'zning xususiyati va emotsionalligini inobatga olgan holda ma'lumotni to'liq, ifodali yetkazish uchun ular orasidan kerakli ekvivalentni tanlay bilishi lozim.

Tilshunos D. Bolinger ham intensifikatorlarni ikki turga ajratishni taklif etadi: 1). grammatikalashgan, ya'ni suffikslarga grammatik sinonim sifatida qo'llana oladigan intensifikatorlar; 2). leksik intensifikatorlar [1].

Bu turdagi tasnifda leksik intensifikatorlarning semantik ma'nosi bilan birikish imkoniyati chegaralangan bo'lib, bunda shuni o'ylash kerakki, asosiy e'tibor intensivlarga emas, balki intensifikatorlarga qaratiladi. Agar terribly yoki awfully intensifikatorini olib qaraydigan bo'lsak, bu yerda ular kuchaytiruvchi ma'nosida o'zining salbiy leksik ma'nosini yo'qotadi, ichki negativ (ingerent) konnotatsiya tashqi ijobiy (adgerent) konnotatsiyaga o'zgaradi. Maslan, Tun o'lgudek qorong'u va bo'ronli edi – The night was terribly dark and stormy; U o'lgudek chiroyli edi – She is terribly nice.

Tilshunoslar sifat va ravish darajalarini ham grammatikalashgan turdagi intensifikatorlarga kiritishadi. Maslan, uzun – uzunroq – eng uzun, long – longer – the longest kabi.

Morfologik strukturasi bo'yicha intensifikatorlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Doimiy yoki sof intensifikatorlar, ya'ni o'zining barcha ko'rinishlarida intensivlik ifodalaydi. Ular tarkibiga: rather, every, damned, quite, perfectly, awfully/awful, fairly, intensely, evidently, extremely, absolutely, so, particularly, dead, too, entirely, jolly, greatly, terribly, pretty, extraordinary kabilar kiradi.

2. Ko'pincha so'z ma'nosini kuchaytiruvchi maqomida qo'llanuvchi intensifikatorlar. Bular qatoriga: apparently, wonderfully, exactly, such, exactly, horribly, especially, dreadfully, most, much, hell, how, beautifully, a good deal kabilar kiradi.

3. Ko'pincha leksik birliklar sifatida qo'llanuvchi ehtimoliy intensifikatorlar. Ular tarkibiga: really, completely, badly, bloody, just, dirt, more, still kabilar mavjud.

4. Unikal intensifikatorlar, ya'ni ma'lum bir sharoitlardagina so'z ma'nosini kuchaytiruvchi leksik birliklar. Ular all, every, firmly, even kabi so'zlar yordamida ifodalanadi.

5. Bir martalik intensifikatorlar, bular boshqa tiplardan o'zining kuchli konnotativligi va kontekstual desemantizatsiyasi bilan farqlanib turadi. Bularga grossly, huge va boshqalar kiradi hamda bu tipdagi kuchaytiruvchilarni stilistik jihatdan qo'llanishi natijasida ularning miqdori chegaralanmagan bo'ladi. Mazkur tipdagi intensifikatorlar sof ma'noning qoldig'i (saqlanib qolishi) bilan harakterlanadi. Bunday tasnif intensifikatorlarning morfologik strukturasi anchagina to'liq ifodalaydi, lekin ularning gapdagi funksiyasi va ma'no shakllanishidagi roli hamda matn stilistikasi haqida yetarlicha ma'lumot bera olmaydi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Demak, intensifikator – intensivlikning me'yoriy bo'lmagan darajasini hosil qiluvchi vosita; intensiv natija nomi, til hodisalari voqealanishida me'yordan yuqori daraja ko'rsatkichidir. Masalan: l-a-a-a-rge so'zi tarkibidagi cho'zilgan a-a-a – intensifikator,

l-a-a-a-rge room esa intensiv. Ingliz tilidagi super-, hyper-, over-out- kabi prefikslar (old qo'shimchalar) intensifikatorlar hisoblanadi. Intensifikatorlar intensivlikni eksplisit tarzda ifodalovchi vositalardir. Ammo ko'pchilik so'zlarning semantik strukturasida intensivlik semasi implisit tarzda namoyon bo'ladi. Bunday so'zlar intensifikatlar deb nomlanadi. Ularning markerlari so'zning semantik definititsiyasida uchraydi.

Masalan: Gorgeous – very beautiful: Mandy was there, looking gorgeous as usual; Rejoice – to feel very happy about something; Triumph – a great victory or success: This track has been the setting for some of her greatest triumphs; Terribly – very, or extremely: Something is terribly wrong.

Kuchaytiruvchi ravishlar – bular intensifikatorlar, kuchaytiruvchi ravishlar bilan kelgan iboralar – intensivlar hisoblanadi. Agar bir so'zni o'zi ham intensifikator, ham intensiv maqomida kelsa, ularni farqlash biroz qiyinchilik tug'diradi. Masalan, Ayiq (bear) so'zini metaforik qo'llanishi bu intensifikator. Ayiq! (A bear!) so'zining jumla sifatida kelishi bu – intensiv. Ingliz, rus va hatto o'zbek tilida ham "ayiq (bear)" leksemasi "beso'naqaylik", "qo'pollik" hamda "tarbiyasizlik" kabilar bilan bog'liq. (clumsy, churlish, ill-mannered). Demak, intensifikator – bu intensivlikning har bir kvanti (qadam), intensiv esa, o'z navbatida – intensifikatorlar harakatini ifodalagan lisoniy manifestatsiya. Intensivlar o'zining leksik va morfologik ma'nolarini kontekstda butunlay saqlaydilar. Ularning xarakterli belgisi tayanch so'z ma'nosini kuchaytirish hisoblanadi. Intensifikatorlar esa, aksincha, boshqa so'zlar ma'nosini kuchaytirishi bilan xarakterlanadi va bunda o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotadi hamda grammatik xususiyatini o'zgartiradi.

Intensifikatorlar va intensifikatlar orasiga aniq chegara qo'yish qiyin, chunki semantik strukturasida intensivlik semasiga implisit tarzda ega bo'lgan so'zlar, ya'ni intensifikatlar eksplisit tarzda boshqa so'zlar ma'nosini kuchaytiradi. Masalan: terrible intensifikati pain so'zi bilan birikib, mazkur so'zning intensifikatoriga aylanadi: terrible pain – very strong pain.

Shunday qilib, bizningcha, intensifikator maqomida ifodaning ekspressivlik darajasini kuchaytiruvchi har qanday vosita keladi. Bunday vaziyatda uning qurshovida kuchaytiruv ravishlari, kuchaytiruv sifatlari va fe'llar bo'ladi.

Bizningcha, intensivlik semantik kategoriya bo'lib, umumtil hodisasi hisoblanadi. Chunki intensivlik so'z semantikasining kuchayishiga, uning strukturasida qo'shimcha ma'no nozikliklarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, intensivlik ekspressivlik miqdorining o'lchamini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, intensivlik, ekspressivlik va miqdor kategoriyalari o'zaro bog'lanishda ekanligi kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, intensivlik/deintensivlik kategoriyasi ekspressivlik darajasining ortishi/pasayishida namoyon bo'ladi. Leksemalarning ekspressivlik darajasini aniqlash zaruriyati esa, o'z navbatida, "intensivlik shkalasi" tushunchasining iste'molga kiritilishini taqozo etadi. Qiyoslang: to be in love → to be really and truly in love with smb – to be terribly wildly/agonizingly in love with smb → to love smb madness (death).

To be in love so'z birikmasini intensivlik darajasining oddiy boshlang'ich nuqtasi, ko'rsatkichi sifatida qabul qilsak, mazkur so'z birikmasi tarkibiga kuchaytiruv ravishlarini kiritish orqali intensivlikning turli darajalarini ifodalash imkoniyati vujudga keladi. Bu darajalar intensivlik shkalasidagi u yoki bu belgi miqdori bosqichini bizning ongimizga yetkazadi.

XULOSA

So'zning intensivlik/deintensivlik ma'nosini sharhlashda inson omilining tilga ta'sirini hisobga olish lozim. Zotan, tilning tom ma'nodagi egasi insondir.

Intensivlik/deintensivlik esa til vositasida dunyoni anglash, tushunish jarayonida o'z ifodasini topadi. Buni isbotlash uchun qo'shimcha dalillarga ehtiyoj sezilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bolinger D. Degree Words. – The Hague, Paris: 1972. – P. 134.
2. Шейгал Е.И. Интенсивность как компонент семантики слова в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М.: 1981. – С. 26
3. Радионова С.Е. Категория интенсивности и ее выражения в публицистическом дискурсе. – М.: МГУ, 1992. – С. 158.
4. Greenbaum S. Verb-Intensifier Collocations in English: An Experimental Approach. – The Hague, Paris: 1970. – P. 139.